

Target (reklama) xizmatlari ko'rsatish to'g'risida

Meta Ads — Instagram / Facebook reklama boshqaruvi

Termiz sh. / _____

« ____ » _____ 2026-yil

Bir tomondan, bundan keyin «**Ijrochi**» deb ataluvchi **Anvar Raxmadullayev** (target mutaxassisi), ikkinchi tomondan, bundan keyin «**Buyurtmachi**» deb ataluvchi _____ nomidan ish yurituvchi _____, birgalikda «Tomonlar» deb ataladi va quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

- 1.1.** Ijrochi Buyurtmachining biznesi uchun Meta Ads (Instagram va Facebook) platformalarida reklama kampaniyalarini sozlash, yuritish va optimizatsiya qilish xizmatlarini ko'rsatadi.
- 1.2.** Xizmatlar hajmi Buyurtmachi tomonidan tanlangan tarifga muvofiq belgilanadi (2-bo'lim).
- 1.3.** Ijrochi xizmatni sifatli va o'z vaqtida bajarish, Buyurtmachi esa qabul qilib olish va haq to'lash majburiyatini oladi.

2. Tanlangan tarif

Buyurtmachi quyidagi tariflardan birini tanlaydi (kerakligi ✓ bilan belgilanadi):

Tanlov	Tarif	Narxi (oyiga)	Shartnoma muddati
☐	Target Standart	\$500	1 oydan (chegirmasiz)
☐	Target Focus	\$800 (\$1000)	kamida 3 oy
☐	Target Focus Pro	\$1600 (\$2000)	kamida 3 oy

Chegirma sharti: Focus va Pro tariflaridagi chegirmali narx (\$800 va \$1600) faqat kamida **3 oylik shartnoma** tuzilganda amal qiladi. 3 oydan qisqa muddatga to'liq narx qo'llaniladi (Focus — \$1000, Pro — \$2000).

3. Xizmatlar tarkibi

Tanlangan tarif tarkibiga kiruvchi to'liq xizmatlar ro'yxati ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan «**Target Xizmati Tariflari**» **kommersiya taklifida** keltirilgan va Tomonlar tomonidan tasdiqlangan.

Umumiy holda xizmatlar quyidagilarni qamrab oladi (tarifga qarab hajmi farqlanadi): auditoriya va raqobatchi tahlili, reklama akkauntini sozlash, reklama kreativlariga TZ (senariy) yozish va target yoqish, kampaniyalarni optimizatsiya qilish, hisobotlar, sotuv bo'limi bilan tahlil-uchrashuvlar, CRM integratsiya va (Pro tarifda) avtovaronka qurish.

4. Reklama byudjeti

- 4.1** Reklama byudjeti (Meta platformasiga to'lanadigan mablag') **tarif narxiga kirmaydi** va Buyurtmachi tomonidan alohida to'lanadi.
- 4.2** Har bir tarif uchun Ijrochi tomonidan boshqariladigan oylik byudjet chegarasi belgilangan (Standart — 700\$ gacha, Focus — 1500\$ gacha, Pro — 1500\$ dan yuqori).
- 4.3** Byudjet belgilangan chegaradan sezilarli oshsa, Tomonlar keyingi tarifga o'tish yoki qo'shimcha shartlarni kelishib oladilar.

5. To'lov tartibi

- 5.1** Xizmat haqi tanlangan tarifga muvofiq belgilanadi va oyiga \$ (AQSh dollari) ni tashkil etadi.
- 5.2** Ish boshlash uchun Buyurtmachi **50% miqdorda oldindan to'lov (predoplata)** amalga oshiradi. Ijrochi ish jarayonini predoplata olingandan so'ng boshlaydi.
- 5.3** Qolgan 50% to'lov joriy hisobot davri (masalan: oy o'rtasida / oxirida) amalga oshiriladi.
- 5.4** To'lov quyidagi usulda amalga oshiriladi: (naqd / plastik karta / bank o'tkazmasi).

6. Tomonlarning majburiyatlari

6.1. Ijrochi majburiyatlari:

- Tanlangan tarifga muvofiq xizmatlarni sifatli bajarish;
- Reklama kampaniyalarini muntazam optimizatsiya qilish;
- Kelishilgan tartibda hisobotlar taqdim etish;
- Buyurtmachi ma'lumotlari va reklama akkauntini maxfiy saqlash.

6.2. Buyurtmachi majburiyatlari:

- Xizmat haqi va reklama byudjetini o'z vaqtida to'lash;
- Reklama uchun zarur materiallar (rasm, video, mahsulot ma'lumoti) va akkauntga kirish huquqini taqdim etish;
- Kelib tushgan lidlarga sotuv bo'limi orqali o'z vaqtida ishlov berish;
- Ijrochi bilan operativ aloqada bo'lish.

7. Natija va kafolatlar

- 7.1** Ijrochi optimal lid narxi (CPL) ga erishish va sotuvni o'stirish yo'nalishida professional darajada ishlaydi.
- 7.2** Reklama natijasi ko'plab omillarga (mahsulot, narx, sotuv bo'limi ishi, bozor holati) bog'liq bo'lgani sababli, Ijrochi aniq raqamli sotuv yoki lidlar sonini kafolatlamaydi, biroq natijaga erishish uchun barcha kasbiy sa'y-harakatlarni amalga oshiradi.

8. Shartnoma muddati va bekor qilish

- 8.1** Shartnoma imzolangan kundan kuchga kiradi va tanlangan tarif muddatiga muvofiq amal qiladi.

8.5 Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishni istagan Tomon ikkinchi tomonni kamida **7 (yetti) kun oldin** yozma (Telegram orqali ham) ogohlantiradi.

8.3 Bekor qilinganda amalga oshirilgan ishlar uchun to'lov qaytarilmaydi; predoplata bajarilgan ish hajmiga muvofiq hisoblanadi.

9. Yakuniy qoidalar

9.1 Hozir Tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

9.3 Shartnoma ikki nusxada, har bir Tomon uchun bittadan tuzildi va teng yuridik kuchga ega.

9.5 Shartnomaga o'zgartirishlar Tomonlarning yozma kelishuvi asosida kiritiladi.

IJROCHI

Anvar Raxmadullayev

Target mutaxassisi

Tel / Telegram:

Imzo / Sana

BUYURTMACHI

F.I.O. / Tashkilot:

Lavozimi:

Tel / Telegram:

Imzo / M.O'. / Sana